

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
KORRUPSIYAGA QARSHI  
KURASHISH AGENTLIGI**



**THE ANTI-CORRUPTION  
AGENCY OF THE REPUBLIC  
OF UZBEKISTAN**

100070, Toshkent shahar, Sh. Rustaveli ko‘chasi, 8A  
Tel.: (998 71) 202 04 02 (102),  
el. pochta.: info@anticorruption.uz, antikor@exat.uz

8A, Shota Rustaveli Street, Tashkent, 100070  
phone: (998 71) 202 04 02 (102),  
e-mail: info@anticorruption.uz, antikor@exat.uz

21 may 2026 yil.

03-07/4676-son

**O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta‘lim, fan va  
innovatsiyalar vazirligi**

8.05.2026-yildagi 02/23-3238-son xatga

O‘zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasida korruptsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF–270-son Farmoniga muvofiq, korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining rahbar va xodimlari faoliyatiga samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) tegishli lavozim uchun belgilangan maksimal miqdorda tatbiq etilishi hamda korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining mas‘ul lavozimlariga nisbatan ish tajribasi va kasbiy kompetensiyasiga doir minimal talablar joriy etilishi yuzasidan tushuntirish berishni so‘rab yo‘llagan xatingiz ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-682-son Qonunining 41-moddasining 1-qismiga asosan, normativ-huquqiy hujjatlar orqaga qaytish kuchiga ega emas va ular amalga kiritilganidan keyin yuzaga kelgan ijtimoiy munosabatlarga nisbatan qo‘llanilishi belgilangan.

Shunga ko‘ra, PF–270-son Farmonida nazarda tutilgan korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining mas‘ul lavozimlariga nisbatan ish tajribasi va kasbiy kompetensiyasiga doir minimal talablar ushbu Farmon qabul qilingan kundan keyin ishga qabul qilingan respublikadagi davlat oliy ta‘lim muassasalari hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi tizim tashkilotlariga nisbatan tatbiq etilishi ma‘lum qilinadi.

**Direktor o‘rinbosari**



**U. Mavlyanov**

Ijrochi: Sh. G‘ulomov  
Tel.: (+998 71) 202-04-02  
Ichki raqam: 224

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

K/R: 4/1-4885

2026-yil 21 -may